

Bugun akademik Yahyo G'ulomov tavallud topgan kun

Ko'hna tariximizning yetuk bilimdoni, tarixchi-arxeolog, O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, tarix fanlari doktori, professor, Respublikada arxeologiya sohasining rivojiga va arxeolog kadrlarning butun bir avlodini yetishtirishga ulkan hissa qo'shgan ulug' ustoz Yahyo G'ulomovich G'ulomov 1908-yil 1-may kuni Toshkent shahrining Shayxontohur dahasida madrasa mudarrisi oilasida tug'ilgan. Otasi G'ulomxon mahsum Toshkentning mashhur Xo'ja Ahror madrasasida mudarisslik qilar, onasi Soraxon esa maktabdor edilar.

1918-yil otasi G'ulomxon mahsum vafotidan so'ng, to 1921-yilgacha Yahyo G'ulomov onasi va akasidan ta'lim oladi.

1921-1926-yillarda Yahyo G'ulomov "Namuna" maktab-internatida yashab tahsil oladi.

Yahyo G'ulomovning ilmga bo'lgan intilishi oliy ma'lumot olish yo'lida keyinchalik Samarqandga yetakladi. 1927-1930-yillarda Yahyo G'ulomov Samarqanddagi O'zbek davlat pedagogika akademiyasining ijtimoiy-iqtisodiy bo'limida o'qiydi. Yahyo G'ulomov bu dorilfununda o'sha davrning mashhur olimlari Po'lat Soliyev, Vasiliy Vyatkin, Abdurauf Fitrat, Muso Saidjonov va boshqa olimlarning ma'ruzalarini tingladi va ulardan saboq oldi.

Samarqanddagi o'qish tugab, Toshkentga qaytgach, Y.G'ulomov bir muncha vaqt Toshkent pedagogika texnikumida (1931) o'qituvchilik qiladi. Aynan shu vaqtga kelib Yahyo G'ulomov hayotida mustaqil ilmiy tadqiqotlar davri boshlandi. Qadim tariximizni o'rganishga bo'lgan qiziqish uni ilmga yo'lladi.

1933-yili Ya. G'ulomov O'zbekiston Xalq Komissarlari Soveti huzuridagi tarixiy yodgorliklarni saqlash va ilmiy o'rganish Respublika komiteti - "Uzkomstaris"ga avval ilmiy xodim, so'ngra uning ilmiy kotibi qilib tayinlanadi.

1937-yilning kuzida Yahyo G'ulomov S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm ekspeditsiyasiga O'zbekiston SSR Fanlar Komitetidan jalb etiladi va u o'sha ekspeditsiya rahbarining O'zbekiston nomidan o'rinbosari - arxeolog sifatida faoliyat yuritadi.

1941-yilda Yahyo G'ulomovning "Xiva shahri va uning obidalari" nomli ilmiy asari bosilib chiqadi. 1943-yil Yahyo G'ulomov ushbu ilmiy asari asosida "Xiva shahri va uning obidalari" mavzusida tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini himoya qildi.

Yahyo G'ulomovning Xorazm hududida olib borgan ko'p yillik arxeologik tadqiqotlari, Sharq qo'lyozma asarlarining tahlili va boy etnografik ma'lumotlar asosida vohaning 4-4,5 ming yillik ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotini to'liq aks ettirgan yirik ilmiy ish "Xorazmning sug'orilish tarixi qadim zamonlardan hozirgacha" nomli asari vujudga keldi. Bu tadqiqot olimning "Xorazmning sug'orilish tarixi. Qadimgi zamonlardan hozirgacha" mavzuida 1950-yili yoqlagan doktorlik dissertatsiyasini asosini tashkil etdi. Y.G'.G'ulomovning ulug' xizmatlaridan biri O'zbekiston arxeologiyasi faniga mahalliy yoshlarni jalb qilish, ularni yuksak malakali mutaxassis sifatida shakllantirish ishlariga bosh-qosh bo'lishdan iborat bo'ldi. 1960-1990-yillarda tarixchi va arxeologlarning o'ziga xos "G'ulomov maktabi" dunyoga keldi.

Yahyo G'ulomovning tashabbusi bilan 1958-yili bir jildlik "O'zbekiston tarixi" ilk bor o'zbek tilida nashr etildi. Bu asardagi qadimgi va o'rta asr tarixiga oid boblar olimning qalamiga mansubdir. Shuningdek, olim 1974-yilda chop etilgan bir jildlik "O'zbekiston tarixi"ning asosiy mualliflaridan biridir.

O.Sh.Kanimkulov

